

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 17-oktabr, № 212 (8835) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

YO‘LLARIMIZ ENG YUQORI TALABLAR ASOSIDA BARPO ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-oktabr kuni yo‘l xo‘jaligi sohasida qilingan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Avtomobil yo‘llari – iqtisodiyotning “qon tomiri”. Shu bois mamlakatimizda bu sohaga alohida e’tibor qaratilib, ish ko‘lami va sifati oshirib borilmoqda. Xususan, ilgari 2009 – 2016-yillarda 9 trillion so‘m evaziga ming kilometrdan ko‘proq yo‘l qurilgan va 20 ming kilometri ta’mirlangan bo‘lsa, so‘nggi sakkiz yilda bu ko‘rsatkichlar 6 barobargacha o‘sgan. Ya’ni sohaga 58 trillion so‘m ajratilib, 2 ming kilometr yo‘l barpo etilgan, 100 ming kilometri ta’mirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq yo‘l xo‘jaligi tizimi yanada takomillashtirildi. Xususan, loyihalash, qurish, ekspluatatsiya uchun mas’ullar aniq belgilab qo‘yildi, buyurtmachi va pudratchi funksiyalari bir-biridan ajratildi.

Yo‘llarni ilmga asoslanib, zamonaviy yondashuvlar asosida qurishga e’tibor kuchaydi. Masalan, loyiha hujjatlarining namunaviy andozalaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqish usuliga o‘tildi. 1 ming 700 ta maxsus texnika xarid qilinib, yo‘l xo‘jaligi korxonalarining ta’minot darajasi oshirildi. Yangi turdagi asfalt-beton, sement-beton qoplamalar joriy etildi.

Natijada sifat ham o‘zgaryapti. Yangi qurilgan yo‘llarning ekspluatatsiya muddati 15 – 20 yil bo‘ladi. Ularning holati 42 turdagi ko‘rsatkich bo‘yicha tekshirib boriladi. Jahon bankining grant mablag‘lari hisobidan olib kelingan texnikalar yo‘lning fizik xossalarini baholash hamda yer ostidan o‘tgan kommunikatsiya tarmoqlari holati qoplamani buzmagan holda tekshirish imkonini beradi.

Ko‘chalardagi obodlik “Yashil makon” umummilliy loyihasining, umuman, madaniyatimizning bir qismi. Har mavsum ularning ikki chetida ko‘chatlar ekilmoqda. Shuningdek, daraxtlarni parvarishlash uchun yo‘llar bo‘yidagi yer maydonlarini ijaraga berish joriy etildi.

Taqdimotda sohadagi loyihalar va rejalar haqida axborot berildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tahliliga ko‘ra, sifatli yo‘llar O‘zbekiston iqtisodiyotining kamida 2 foiz o‘sishiga turtki beradi. Bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlari bilan 729 kilometr yo‘lni rekonstruksiya qilish bo‘yicha 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Jumladan, yaqin kunlarda Qo‘ng‘irot – Beynau yo‘nalishidagi 240 kilometr yo‘l foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, Guliston – Andijon, Dushanbe – Termiz, Buxoro – Turkmanboshi, Urganch – Hazorasp yo‘llarining muayyan qismlari qayta quriladi.

Sohaga xususiy sektor vakillari ham keng jalb qilinmoqda. Hududlardagi jami 260 kilometr yo‘llarning ekspluatatsiyasi autsorsing asosida tadbirkorlarga berildi. Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida 841 kilometr yo‘l qurilishida ilk bor to‘liq mahalliy pudratchilar qatnashishiga kelishildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi muhim vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

– O‘zbekistonning geografik joylashuvini e’tiborga olsak, tashqi savdoda xalqaro yo‘llarning ahamiyati juda katta. Shu bois Andijon bilan Qo‘ng‘irotni, Termiz bilan Toshkentni bog‘laydigan jami 4 ming kilometrlik xalqaro yo‘llarimiz eng yuqori talablarga javob berishi shart, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Toshkent – Samarqand va Toshkent – Andijon oralig‘idagi pulli yo‘l loyihalarini jadallashtirish, ularni qatnov darajasi yuqori bo‘lgan uchastkalarda qurish zarurligi qayd etildi. Bunday hollarda muqobil bepul yo‘l mavjud bo‘lishi alohida qonun bilan belgilanadi.

Bugungi kunda 4 ming 700 ta ko‘prik ta’mirtalab holatda. Uch yillik dastur ishlab chiqib, ularni bosqichma-bosqich ta’mirlash vazifasi qo‘yildi.

Hududlarda yo‘l bo‘yi infratuzilmasi rivojlantirilib, savdo va xizmatlar tashkil qilinmoqda. Taqdimotda aytilganidek, bunga qo‘shimcha qariyb 4 ming kilometrlik xalqaro avtomagistrallarda 70 ta servis majmuasi barpo etiladi.

Yo‘l va suv tarmoqlari kabi infratuzilmaviy loyihalarda xalqaro moliya institutlari bilan yaqindan ishlash, xorijiy konsultantlarni jalb etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA.

SAYLOV – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda.

Bugungi sonda O‘zbekiston Ekologik partiyasi nomidan “Inson hayoti va sog‘ligini himoya qilish va ekologik huquqlarini ta’minlash: istiqboldagi vazifalar” sarlavhali maqola e’lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

Xalqaro konferensiya

Ulamolar O‘zbekiston Prezidentining tashabbuslarini bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi

Kecha xabar berganimizdek, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida “Islom – ezgulik va tinchlik dini” mavzuida nufuzli xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Anjumanning to‘rtinchi shu’basi Xiva shahrida muqaddas Qur’on tilovati bilan boshlandi.

Dunyoning 22 mamlakatidan 70 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, din arboblari, muftiylar va taniqli ulamolar qatnashgan tadbirda yurtimizdan buyuk alloma va ulamolar yetishib chiqqani, ularning ilmiy merosini o‘rganish bugungi kunda bag‘oyat muhim ekanligi, shu bilan birga ularda islom dinining asl insonparvarlik mohiyati ochib berilgani, eng ulug‘ ne’matlardan bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash borasida dolzarbligini yo‘qotmaydigan chaqiriqlar aks etgani ta’kidlandi.

4

Debat

VAKILLARIMIZ TOMONIDAN GLOBAL MULOQOTNI KUCHAYTIRISH TAKLIFI BERILDI

Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Parlamentlararo Ittifoqning 149-assambleyasi doirasida tashkil etilgan “Tinch va barqaror kelajak uchun fan, texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish” mavzuidagi debatda ishtirok etdi.

Unda O‘zbekiston tomonidan keyingi yillarda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilayotgani, bu borada qisqa vaqtda ko‘plab huquqiy hujjatlar qabul qilingani alohida ta’kidlandi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ilg‘or texnologiyalarni jadal joriy etish, sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish asosiy yo‘nalishlar qatorida belgilab berilgani ta’kidlandi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston 2023-yilda Global innovatsiyalar indeksi reytingida 2015-yildagiga nisbatan 40 pog‘onaga ko‘tarilgani alohida e’tirof etildi.

Debat davomida vakillarimiz tomonidan kelgusida innovatsiya sohalarini rag‘batlantirish, parlamentlar o‘rtasida kadrlar salohiyatini oshirish va rivojlantirish yo‘nalishida hamkorlikni, fan va texnologiya sohasida global muloqotni kuchaytirish tashabbusini ilgari surdi.

JENEVADA O‘ZBEKISTON KUNI

Parlamentlararo Ittifoqning 149-assambleyasi doirasida maftunkor yurtimiz va amalga oshirilayotgan islohotlar namoyishiga bag‘ishlangan O‘zbekiston kuni tashkil etildi.

Taqdimot

Unda turli mamlakatlarning delegatsiyalari, parlament a’zolari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi.

Tadbir qatnashchilariga boy tarixga ega yurtimiz, qadriyatlarimiz va madaniy merosimiz aks etgan videorolik namoyish qilindi.

Mazkur rolik ularda o‘zgacha taassurot qoldirdi. O‘zbekistonning turistik salohiyatini aks ettiruvchi ekspozitsiya esa xorijlik hamkorlarimizning mamlakatimiz haqidagi tasavvurini yanada boyitdi.

Shuningdek, kelgusi yilning aprel oyida rejalashtirilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv

KUN TARTIBIDA – O‘ZARO HAMKORLIK VA ISTIQBOLDAGI REJALAR

Xabaringiz bor, O‘zbekiston keyingi yillarda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan samarali hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimizning XMT Ma’muriy kengashi a’zoligiga saylangani esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning bu sohadagi tashabbus va sa’y-harakatlarining yana bir global miqyosdagi e’tirofidir.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Jenevaga rasmiy tashrifi doirasida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bosh direktori Jilber Ungo bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Unda ham aynan hamkorlikning yangi bosqichi, oldingi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarning holati va natijalariga e’tibor qaratildi. Jumladan, munosib mehnat tamoyillarining tizimli tatbiq etilishi hamda XMT bilan ijtimoiy adolat Global koalitsiyasi doirasidagi hamkorlik va istiqboldagi rejalar muhokama qilindi.

Shuningdek, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan dasturning joriy etilgani, unda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan tavsiya qilingan standartlar inobatga olingani alohida ta’kidlab o‘tildi.

Shu bilan birga, uchrashuvda munosib mehnat tizimini takomillashtirishda qonunchilikka oid islohotlarning ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Shuningdek, parlamentning ta’sirchan kuchi va vakolatlaridan samarali foydalanish yuzasidan fikr almashildi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Hayotiy masalalarning huquqiy asosi va xalqchil normalar

Avval xabar berilganidek, kuni kecha bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida deputatlar tomonidan qator muhim masalalar, jumladan, hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirish, temir yo‘l transportida yuk tashishni kengaytirish, jonli ijro san’atini yanada rivojlantirish, energetika sohasida to‘lov intizomini mustahkamlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonun loyihalari qizg‘in muhokama qilindi. Shuningdek, tegishli vazirliklarga yuborilgan parlament so‘rovlariga javoblar ham atroflicha ko‘rib chiqildi.

Hayvonot va o‘simlik dunyosi muhofazada

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan hayvonot va o‘simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Majlisda mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza etish, biologik xilmaxillikni asrash, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simliklar hamda hayvonlarning barqaror yashash va o‘sish sharoitlarini ta’minlash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi. Lekin shunga qaramay joylarda taqiqlangan qurollar yoki usullarni, xususan, elektr toki, portlovchi va kimyoviy moddalar hamda biologik preparatlarni qo‘llagan holda ov qilish va baliq ovlash holatlari ortib bormoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi hamda “Ov qilish va ov xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlarning normalari bir-biriga muvofiqlashtirilyapti. Ushbu qonunlardagi ov quroli, jumladan, baliq ovlash quroli bilan bog‘liq huquqiy bo‘shliqlar bartaraf etilmoqda.

Bundan tashqari, kimyoviy, biologik va bakteriologik vositalardan foydalangan holda, shuningdek, binolar, inshootlar yoki boshqa obyektlarni qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish yoxud o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish hamda kapital ta’mirlash vaqtida daraxtlarga, butalarga yoki boshqa o‘simliklarga qasddan shikast yetkazish, payhon va nobud qilganlik uchun javobgarlik belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasi hayvonot va o‘simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, davlat ekologik nazorati instituti samaradorligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli ekani qayd etildi.

Muhokamalardan so‘ng, qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o‘qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Imtiyozlar yanada kengaytiriladi

Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – “Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

2

Anjuman

Atom energetikasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari muhokamasi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida energetika sohasida muhim xalqaro tadbir – “O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Tadbir atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishning dolzarb masalalari va imkoniyatlarini muhokama qilish, milliy va xalqaro ekspertlar o‘rtasida bilim va tajriba almashish uchun maydonga aylandi.

Ilg‘or xalqaro tadqiqotlar instituti Energetika diplomatiyasi va geosiyosat markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi hamkorligida tashkil etilgan anjumanda Vengriya, Turkiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Serbiya, AQSh, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlardan xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

4

YANGILANISHLAR JARAYONIGA DAXLDORLIK HISSI VA MAS’ULIYAT



Bugungi kunda yurtimizning barcha hududida bo‘lgani kabi Toshkent viloyatida ham yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, yangilanishlarni ko‘rib behad quvonasiz. Katta-katta marralarni ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi aholini farovonlikka, taraqqiyot sari dadil yetaklab boryapti.

Davlatimiz rahbarining kuni kecha ushbu hududga tashrifi istiqbolli loyihalar, tashabbuslar va imkoniyatlar eshigini ochib, yangi “o‘sish nuqtasi”ni aniqlash imkonini berdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.



Aks sado

Shu o‘rinda qayd etish joizki, viloyatning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, shahar va tumanlar aholisining farovonligini oshirish va turmush sifatini yaxshilashda Yurtboshimizning “Toshkent viloyatining ma’muriy-hududiy tuzilishini hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, ko‘rilayotgan choralar tufayli 2021-yilda hududning kambag‘allik darajasi 23,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 10,2 foizni tashkil qilmoqda. Bunday natijalarga erishishda aholini zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish, ularga munosib ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli va uzoqni ko‘zlagan siyosat hal qiluvchi omil bo‘lyapti.

Viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, yangi ish boshlayotgan tadbirkorlarga har tomonlama qulaylik yaratishga qaratilayotgan e’tibor ushbu sohaning izchil rivojlanishiga keng yo‘l va imkoniyat ochib bermoqda. Bu orqali aholining tadbirkorlik qilishga ishtiyoqi kundan-kun oshyapti. Buni poytaxtimizdagi ayrim korxonalar infratuzilma yaqinligi, yer, mulk solig‘i, ishchi kuchi arzonligi uchun Toshkent viloyatidan joy qidirayotgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Tashrif davomida Olmaliq shahrida Toshkent viloyati rivojining hozirgi holati va kelgusi vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Toshkent, Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq tumanlari, Chirchiq va Nurafshon shaharlari poytaxt tumanlari bilan hamohang rivojlanishi kerakligiga urg‘u berildi.

Buning uchun Toshkent tumanida 97 gektarda industrial texnopark tashkil qilinib, unda tadbirkorlar va banklar ishtirokida 350 million dollarlik yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalar joylashtirilishi muhim tashabbus bo‘lib, bu, o‘z navbatida, biznes muhitini yaxshilash, ish o‘rinlari yaratish, odamlarning turmush farovonligini yanada oshirishga xizmat qilishi aniq.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 17-oktabr

Oliy Majlis Senatida

AHOLI KONSERT-TOMOSHA TADBIRLARIGA MAHALLABAY TAMOYILI ASOSIDA JALB ETILADI



Kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi. Senatorlar, Madaniyat vazirligi va turli idoralar vakillari, ekspertlar hamda Yoshlar parlamenti a’zolari qatnashgan majlisda Madaniyat vaziri o‘rinbosarining aholini konsert-tomosha tadbirlariga mahallabay tamoyili asosida muntazam jalb etish yuzasidan axboroti eshitildi.

Unda mazkur yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilgani qayd etildi. Xususan, vazirlik tizimidagi 40 ta teatr tomonidan joriy yilning olti oyi davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘ylab 76 ta gastrol safari tashkil etilgan. Ushbu gastrollar doirasida teatr spektakllari seanslariga 50 mingdan ortiq tomoshabinlar tashrif buyurgan.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida 9 ta hududning 17 ta tuman va shaharida “Madaniyat karvoni” konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilgan hamda 150 ming kishi qamrab olingan.

Turizm obyektlarida ijodiy jamoalar tomonidan 235 ta teatrlashtirilgan konsert-tomosha dasturi tashkil qilinib, ularga 7,5 ming fuqaro hamda 2,7 ming xorijiy sayyoh jalb etilgan.

Respublika bo‘yicha belgilangan 17 ta manzilda “Ko‘cha san’ati va musiqasi” loyihasi amalga oshirib kelinmoqda.

Askiya va qiziqchilar jamoalarining 30 dan ortiq tashkilotlarga mahalliy gastrol safarlari tashkil etilib, 10 mingga yaqin fuqarolar qamrab olingan.

Muhokamalar jarayonida sohada olib borilgan ishlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar borligi ham qayd etildi. Jumladan, Prezidentimizning tegishli qarorlarida belgilangan ayrim vazifalar ijrosi kechiktirilayotgani ta’kidlandi. Misol uchun, konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali, “Onlayn madaniyat markazi” platformasi hamda ommaviy madaniy va konsert-tomosha tadbirlari o‘tkaziladigan obyektlarni ijaraga berish jarayonlarini raqamlashtirishni nazarda tutuvchi axborot tizimi faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Mahalliy hokimliklar tomonidan ta’lim va madaniyat muassasalarida tashkil etilgan lektoriy konsertlar moliyalashtirilmagan. Hududlardagi teatrlarning ehtiyojmand xodimlari uchun xizmat uylari ajratilmagan.

Madaniyat va san’at sohasidagi televizion shou shakliga o‘tkazilishi belgilangan 7 ta tanlovdan 3 tasi hamda xususiy sektorga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan madaniyat va san’at sohasidagi 5 ta ko‘rik-tanlovdan birortasi haligacha o‘tkazilmagan.

Rejada belgilangan tadbirlarni o‘tkazish joyi, vaqti, ishtirok etadigan ijodkorlar haqida aholini kamida ikki oy oldin xabardor qilish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlarini tashkil etish uchun zarur mablag‘lar ajratilmagan hamda “Ko‘cha san’ati va musiqasi” loyihasida ishtirok etgan faol ijodkorlar rag‘batlantirilmagan.

Muhokamalar davomida senatorlar tomonidan ommaviy-madaniy tadbirlarning g‘oyaviy mazmun-mohiyatini, milliy mentalitetimizga xosligini o‘rganish hamda ularning badiiy-estetik saviyasini oshirish maqsadida konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish uchun to‘lov asosida amalga oshiriladigan bir martalik xulosa berish tizimini joriy etish bo‘yicha hukumat qarorini qabul qilishni tezlashtirish lozimligi ta’kidlandi.

Majlis yakunida qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilinib, mamlakatimizda aholini konsert-tomosha tadbirlariga mahallabay tamoyili asosida muntazam jalb etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

“Xalq so‘zi”.

ILM-FAN YUTUQLARI VA ILG‘OR TAJRIBA

Oliy Majlis Senati Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi B. Alixonov Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida o‘tkazilgan “Fan va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi – modernizatsiya va innovatsion rivojlanish asoslari” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada onlayn formatda ishtirok etdi.

Ilmiy yondashuv

Unda xorijiy davlatlar yetakchi olimlari, davlat va xususiy tashkilotlar vakillari hamda professor-o‘qituvchilar qatnashdi.

Tadbirda iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar hamda bu jarayonda fanning o‘rni bilan bog‘liq asosiy masalalar muhokama qilindi.

Senator tomonidan alohida qayd etilganidek, bugun energiya nafaqat iqtisodiyot, balki davlatning barqaror rivojlanishida ham asosiy omil hisoblanadi. Ayni chog‘da global uglevodorod zaxiralari tugashi va global ekologik muammolarning kuchayishi sharoitida muqobil energiya hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

E’tirof qilinganidek, bu yo‘nalishda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilyapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanayotgan jismoniy shaxslar hamda tadbirkorlarga davlat tomonidan imtiyozlar berib kelinayotgani misolida buni ko‘rish mumkin. Jumladan, jismoniy shaxslar uchun yer hamda mol-mulk solig‘idan uch yil muddatga, tadbirkorlik subyektlari uchun o‘n yil muddatga imtiyozlar nazarda tutilgan.

Shuningdek, tadbirda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga integratsiyalashning ilg‘or tajribalari hamda iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shayotgan ilmiy tadqiqotlarning yangi tendensiyalari haqida ma’ruzalar tinglandi.

Anjuman yakunida bildirilgan fikr va takliflar asosida tegishli tavsiyalar qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

YANGILANISHLAR ARAYONIGA DAXLDORLIK HISSI VA MAS’ULIYAT

1 Aytish joizki, bir paytlar viloyatda ichimlik suvi ta’minotida ham ayrim muammolar bor edi. O‘tgan qisqa davrda Prezidentimiz tashabbusi bilan bu masala sekin-asta yechim topa boshladi. Viloyatda ko‘plab aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Shuningdek, “Toshkent viloyati ichimlik suvi va oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish va qurish” loyihasining 3-bosqichi doirasida Chirchiq, Olmaliq, Angren va Bekoboddagi inshootlar rekonstruksiya qilinmoqda. Masalan, “Mesal Water Technologies” korxonasida shu kabi suv tozalash inshootlari uchun o‘ttizdan ortiq maxsus qurilma va uskunalar ishlab chiqarilyapti. Bu esa aholi farovonligi va salomatligiga munosib hissa qo‘shadi.

Viloyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida gapirganda, albatta, oxirgi yetti yilda hududda qariyb 9,4 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, 143 mingdan ortiq ish o‘rinlari va 5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratilganini ham alohida qayd etish joiz. 2024 – 2026-yillar uchun esa jami 26 milliard dollarlik 125 ta loyiha rejalashtirilgan. Bu orqali ko‘plab ish o‘rinlari yaratilib, aholining daromadlari oshadi, odamlar hayotdan rozi bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining hududga tashrifi davomida hech bir soha e’tibordan chetda qolmadi. Masalan, migratsiya bo‘yicha masalalar ham e’tibor markazida bo‘ldi. Chunki keyingi paytlarda Toshkent viloyatidan xorijga arzon ishlarga ketganlar 30 mingga kamaygan. Lekin hali 158 ming kishi chet elda mehnat qilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati takomillashtirilib, aholini xavfsiz va yuqori daromadli ish bilan ta’minlash bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etilishi mutlaqo oqilona qaror bo‘ldi. Ayniqsa, chet elda mavsumiy ishlab qaytgan va yana ketish istagida bo‘lgan kishilarga yuqori daromadli kasblar o‘rgatilishi, kasb-hunari borlar xorijiy tillarga o‘qitilishi, shubhasiz, yoshlarimizning xorijda samarali mehnat qilishi va yaxshi daromad topishiga turtki bo‘ladi.

Bugun viloyatning qay bir go‘shasiga bormang, shahar va qishloqlarda yangilanish, aholini uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinayotganiga guvoh bo‘lasiz. Eng muhimi, odamlar kayfiyati yuqori, mamlakatdagi islohotlardan mamnun. Oddiy misol. Yaqin-yaqingacha viloyatda paxsadevor maktablar, tomlari loy suvoqli uylar ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugun ular keskin kamaydi. Mavjud ta’lim muassasalari rekonstruksiya qilinyapti, yangilari barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifi davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalar barcha rahbarlar qatori biz, deputatlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan, biz bu borada yanada faol bo‘lib, ushbu topshiriqlar ijrosi ustidan doimiy ravishda deputatlik nazoratini o‘rnatib borishimiz, islohotlar jarayoniga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, yurtimiz taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Mohira XO‘JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Hayotiy masalalarning huquqiy asosi va xalqchil normalar

1 Mazkur qonun loyihasi bilan nodavlat umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normalar belgilanmoqda.

Xususan, ushbu hujjatda quyidagilar nazarda tutilmoqda:

– 2025-yil 1-yanvardan boshlab 2030-yil 1-yanvarga qadar yuridik shaxslarga o‘z mablag‘lari hisobidan nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning foyda solig‘ini hisoblashda ikki yil davomida teng ulushlarda chegirib tashlash huquqi berilmoqda;

– 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan protez moslamalari va ularning butlovchi, ehtiyot qismlari qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod etilishi ko‘zda tutilmoqda;

– muhtoj shaxslar protez moslamalari va reabilitatsiya vositalarini vaucher (subsidiya) asosida xarid qilganda, vaucher qiymati bilan sotib olingan protez moslamalari va reabilitatsiya vositalarining narxi o‘rtasida hosil bo‘lgan va ushbu shaxslarga berilgan ijobiy farqning 20 foizi jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilanmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida to‘xtalib, uning qabul qilinishi nodavlat umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga keng yo‘l ochishini qayd etdi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Temir yo‘l transportida yuk tashish rivojlanadi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda temir yo‘l tarmog‘ini isloh etishda aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan choralar ko‘rilmoqda. Shu o‘rinda mazkur tarmoqqa xususiy sektorni jalb qilishda tizimli ishlarni olib borish talab etiladi.

Ushbu hujjat bilan Soliq kodeksining 483-moddasiga vagonlar (konteynerlar) operatorlarining vagonlarni (konteynerlarni) ijara shartnomasi asosida foydalanishga berish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha aylanmasi qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilmoqda.

Qonun loyihasi temir yo‘l transportida yuk tashishni yanada rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘lib, temir yo‘l tarmog‘iga investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Milliy gvardiyaning bolalar bilan ishlashga oid vakolatlari mustahkamlanmoqda

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham quyi palata majlisida birinchi o‘qishda obdan muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini yangicha yondashuvlar asosida yanada takomillashtirish maqsadida ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlari lavozimlari shtati Milliy gvardiya tashkiliy tuzilmasiga o‘tkazildi.

Shundan kelib chiqib hozirgi kunda ularning qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarini ham Milliy gvardiyaga o‘tkazish yuzasidan qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati mavjud.

Qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektor-psixologlar va inspektor-psixologlarga doir vakolatlarini Milliy gvardiya organlariga o‘tkazishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Bunda Milliy gvardiyaning bolalar bilan ishlash boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari xodimlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi, jumladan, bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik, jamoat joylarida tamaki yoki alkogol mahsulotini iste’mol qilganlik, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishga hamda jarima tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo‘llashga doir vakolatlarini mustahkamlovchi o‘zgartirishlar kiritilishi nazarda tutilyapti.

Deputatlarning fikricha, ushbu qonun loyihasi Milliy gvardiya organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bolalarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Jonli ijroda yangi talab va tartiblar

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan jonli ijro san’atini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Qonun loyihasi bilan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi qonunlarga Madaniyat vazirligining madaniy faoliyat sohasidagi vakolatlari, konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish talablariga, shuningdek, konsert-tomosha tadbirlari reklamasida fonogrammadan foydalanilishi to‘g‘risida axborot berish tartibiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda.

Bunda Madaniyat vazirligining vakolatiga oid normalar yanada takomillashtirilib, tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda jonli ijro yoki fonogrammadan foydalanish shakli va darajasini belgilashi, ijrochilar tomonidan fonogramma va mualliflik asarlaridan foydalanishda amaldagi qonunchilikka rioya qilinishi monitoringini yuritib borishiga oid qo‘shimcha normalar bilan to‘ldirilyapti.

Bundan tashqari, konsert-tomosha tadbirlarida qo‘shiqlarni ijrochilar tomonidan ijro etishda fonogrammadan foydalanish darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan audioxabar tarqatilishini ta’minlash, fonogrammadan foydalanish darajasi haqida axborot berish tartibi, konsert-tomosha tadbirining dasturida ijrochilar va asar mualliflari aniq ko‘rsatilishi shart ekani belgilab qo‘yilmoqda.

Deputatlarning qayd etishicha, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi konsert-tomosha tadbirlarini uyushtirish samaradorligini oshirish, jonli ijro san’atini rivojlantirish, iste’dodli ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va jonli ijroni rag‘batlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga hissa qo‘shadi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Davlat bojidan ozod etish taklif qilinyapti

Deputatlar “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqdi.

Ma’lum qilinganidek, mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan energiyaning hosil qilinishi va sarflanishini barqarorlashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga issiqlik va elektr energiyasi ta’minotchilarining ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar borasidagi qarzdorlikni undirish maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha hamda iqtisodiy sudlarga murojaat qilganda davlat bojidan ozod etishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif qilinmoqda.

Shu bilan birga, issiqlik va elektr energiyasi ta’minoti korxonalarining talablari sud tomonidan ko‘rib chiqilib, mazkur talablarni qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad qilingan taqdirda, davlat boji ushbu tashkilotlardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undirilishi belgilanyapti.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Yaylov yerlaridan samarali foydalanilyaptimi?

Qonunchilik palatasining 2024-yil 27-avgust kuni bo‘lib o‘tgan majlisida Qishloq xo‘jaligi vaziri I. Abdurahmonovga yaylov yerlaridan samarali foydalanish, ularda ozuqabop ekinlarni yetishtirish hamda sohada klaster tizimi asosida ish o‘rinlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida quyi palataning parlament so‘rovi yuborilgan edi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so‘roviga kelgan javobni atroflicha ko‘rib chiqdi.

Unda keltirilishicha, mamlakatimizda yaylov yerlaridan samarali foydalanish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida 9 mln. gektar yaylov yerlarda chorva mollarini ikki va to‘rt bosqichli almashlab boqish bo‘yicha kalendar rejalari ishlab chiqilgan. Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda cho‘l, yarimcho‘l va tog‘oldi yaylovlari uchun yil fasllari bo‘yicha ketma-ket, almashlab foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, yaylov o‘simliklarining 300 gektar birlamchi urug‘chiligi maydonlari tashkil etilgan. Fanlar akademiyasining Botanika instituti bilan hamkorlikda Forish, Nurota, G‘ijduvon, Nurobod, Nishon, Muborak tumanlarida 4 ming gektar yaylov yerlarda dorivor o‘simliklarning tarqalish maydonlari va ularning zaxira qiymatlarini aniqlash ishlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, hududlarda qorako‘lchilik va kavrakchilik yo‘nalishlarida yangi loyihalarni ishga tushirish hamda kavrak plantatsiyalarini tashkil etish uchun 3 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirilgan. Sifatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va kavrak xomashyosini yig‘ib olishni ko‘paytirish hisobiga 8,2 mln. AQSh dollari miqdorida qorako‘l va kavrak mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, yil yakuniga qadar yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqiladi, tarmoqda 117 ming nafar aholining bandligi ta’minlanadi.

Berilgan javobga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasining yaylovlar va ulardagi yer osti suvlarini muhofaza qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon loyihasi ishlab chiqilgan. Unda yaylov o‘simliklari mahsuldorligini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Majlisda parlament so‘roviga Qishloq xo‘jaligi vazirining javobi ma’lumot uchun qabul qilindi.

“Spin-off” korxonalari faoliyatida innovatsion yondashuv

Quyi palataning 2024-yil 27-avgust kuni bo‘lib o‘tgan majlisida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Q. Sharipovga “Oliy ta’lim muassasalari va ularning qoshida “spin-off” tajriba ishlab chiqarish korxonalarini samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi parlament so‘rovi yuborilgan edi.

Majlisda deputatlar mazkur so‘rovga kelgan javobni atroflicha ko‘rib chiqdi.

Parlament so‘roviga javobda keltirilishicha, davlatimiz rahbarining 2022-yil 6-iyuldagi tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida oliy ta’lim tashkilotlarida tadbirkorlik muhiti va faoliyatini shakllantirish hamda ilmiy tadqiqot natijalarining texnologik transferlarini qo‘llab-quvvatlashda akademik “spin-off” kompaniyalarini tashkil etish belgilangan.

2023-2024-yillarda oliy ta’lim muassasalari ta’sischiligida MChJ, DUK shaklida 48 ta korxona faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning 39 tasi ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar (tovar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan innovatsion “spin-off” korxonadir. Shuningdek, ilmiy tashkilotlar qoshida 24 ta “spin-off” korxona faoliyat yuritmoqda.

Vazirlik javobiga ko‘ra 2023-yilda oliy ta’lim muassasalari qoshidagi “spin-off” korxonalariga ajratilgan mablag‘lar 9,63 mlrd. so‘mni, boshqa ta’sischi va ishtirokchilar tomonidan ajratilgan sarmoyalar 2,94 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ishlab topilgan daromad miqdori esa 8,8 mlrd. so‘m bo‘lib, yaratilgan ish o‘rinlari soni 325 taga yetgan.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari tomonidan ochilgan 34 ta “spin-off” korxona faoliyatini davom ettirmoqda. Ular tomonidan turli xil tarmoq korxonalar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi tadbirkorlik subyektlari, aholi uchun zarur bo‘lgan innovatsion va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste’molchilarga yetkazib berilyapti.

Deputatlar tomonidan ushbu yo‘nalishda vazirlik muayyan ishlarni amalga oshirgani, shuningdek, yaqinda Prezidentimiz imzolagan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun mazkur sohani yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgani qayd etildi.

Mazkur qonunning ahamiyatini keng targ‘ib qilish, unda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish lozimligi ta’kidlandi.

Majlisda parlament so‘roviga javobda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha atroflicha ma’lumotlar taqdim etilgani ta’kidlanib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining javobi ma’lumot uchun qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

INSON HAYOTI VA SOG‘LIGINI HIMOYA QILISH VA EKOLOGIK HUQUQLARINI TA’MINLASH: ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblangan yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, avvalo, inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini, har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqlarini ta’minlash hamda mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzli o‘rnini yanada mustahkamlashga qaratilmoqda.

*O‘zbekiston Ekologik partiyasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarida **“Tabiat uchun birlashaylik”** shiori ostida ishtirok etib, atrof-muhit barqarorligini ta’minlash va ekologiya masalalari nafaqat davlat va jamiyat, balki har bir inson, oila va mahallaning birlamchi vazifasi bo‘lishiga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.*

*Partiyamizning Saylovoldi dasturida davlat organlari faoliyatida va jamiyat hayotining barcha jabhasida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz normalarini hayotga izchil tatbiq etish, **davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish** hamda **qonunchilikni takomillashtirish** yuzasidan **2 ta** kodeks, **o‘nga yaqin** yangi qonun loyihalari hamda milliy dastur, konsepsiya va strategiyalarni ishlab chiqish va qabul qilish ko‘zda tutilgan.*

Ekolog-huquqshunos kadrlar tayyorlash va ekologiya sohasiga ixtisoslashtirilgan sudlarni tashkil etish zarur

Yurtimizda ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishni kuchaytirish, ta’sirchan ekologik nazorat tizimini takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Bosh prokuratura tizimida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi, joylarda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat hamda yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan prokuraturalar tashkil etildi. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Partiya, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning ekologik huquqlarini, mulkiy va boshqa manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, ularga sohada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish maqsadida yuridik yordam va xizmatlarni yo‘lga qo‘yish zarur, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan **malakali yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda ekolog-huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish** tashabbusi ekologik nizolarni hal etishda va huquqbuzarliklarning oldini olishda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvlar, tazyiq va to‘siqlarga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, ularning ekologik huquqlari cheklanishining oldini olib, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytiradi.

Hozirda ekologik huquqbuzarliklar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikning amaldagi sanksiyalari ayrim hollarda tabiatga va tabiiy resurslarga yetkazilgan haqiqiy zararga nisbatan nomutanosib ravishda belgilangan bo‘lib, bu ekologik huquqbuzarliklar soni kamayishiga olib kelmayapti. Masalan, o‘tgan **2023-yil**da **chiqindilar** bilan bog‘liq huquqbuzarliklar soni qariyb **17 400 ta**ni, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar **11 580 ta**ni, o‘simlik dunyosini muhofazalash yo‘nalishida **5 220 dan** ortiqni, suv va suv obyektlarini himoyalash borasida **1 400 dan** ortiqni tashkil etgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra 2023-2024-yillar davomida ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan **27 ta** holat bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan bo‘lib, ularning barchasi bo‘yicha yengil jarima sanksiyalari qo‘llanilgan. **9,5 mingga** yaqin noyob turdagi daraxtlar noqonuniy kesilishi oqibatida tabiatga 36 mlrd. so‘mlik zarar yetkazilgan.

So‘nggi uch yilda qurilayotgan obyektlar soni **3 barobar** oshib, daryo o‘zanlarida noqonuniy qum-shag‘al qazib olish bilan bog‘liq **303 ta** holatda **68 mlrd. so‘m** miqdorida jarima qo‘llanilgan, shundan **42 ta** holatda **45 mlrd. so‘m** miqdorida tabiatga zarar yetkazganlik uchun jinoyat ishlari qo‘zg‘atilgan.

Shu o‘rinda, **O‘zLiDeP** Saylovoldi dasturida “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turlarini kamaytirish, mazkur sohani liberallashtirish tarafdorimiz” degan g‘oyani ilgari surmoqda. Biroq mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha huquqbuzarliklar uchun nafaqat ma’muriy, balki jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilayotgan bir paytda bu g‘oya qanchalik o‘rinli bo‘ladi?

Chunki partiyamiz ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, jumladan, **atrof-muhitga va aholi sog‘ligiga yetkazilgan zararni to‘la qoplash majburiyatini hamda huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini takomillashtirish** tarafdoridir.

Partiyamiz ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar kamaymayotganligini qayd etgani holda ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni va jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha **ixtisoslashtirilgan sudlar tashkil etish** hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdagi **javobgarlik choralarini qayta ko‘rib chiqish**, ma’muriy jazo choralarini qo‘llashda **sudlarga kengroq vakolat berish** tashabbuslari orqali sohadagi bir qator muammolarning oldini olish mumkin deb hisoblaydi.

Ko‘plab mamlakatlarda ekologik muammolarga jiddiy e’tibor qaratilishi, ushbu masalalarda fuqarolik jamiyatining faollashuvi ixtisoslashtirilgan ekologik sudlarni tashkil etish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Hozirda xorijiy davlatlarda ixtisoslashtirilgan ekologik sudlarni shakllantirish tendensiyasi kuchayib, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi ma’lumotlariga ko‘ra **44** mamlakatda **1200 dan** ortiq milliy ekologik sudlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Statistikaga ko‘ra, ularning aksariyati so‘nggi o‘n yil ichida Buyuk Britaniya, Xitoy, Belgiya, Boliviya, Paragvay, Filippin, Tailand, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan.

Ekologik sudlar ixtisoslashtirilgan sud sifatida, masalan, AQShning Vermont shtatidagi, Avstraliyaning Yangi Janubiy Uelsdagi, Kanadaning Ontario shtatidagi, Yangi Zelandiyadagi kabi tuzilishi mumkin yoki Niderlandiya, Daniya, Finlyandiya va Shvetsiyadagi kabi sud tizimidagi ekologik nizolarni ko‘rib chiqadigan tuzilma sifatida ham faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Jahon hamjamiyati xalqaro darajada hal qilinishi talab etiladigan ekologik nizolarga duch kelayotganligi sababli 1993-yilda BMT xalqaro sudi tarkibida “ekologik masalalar palatasi” tuzilgan. Shu bilan birga huquqshunoslar tashabbusi bilan 1994-yilda Mexiko shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyada xalqaro ekologik sud tashkil etilgan.

Xalqaro ekologik sud atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhitni boshqarish bo‘yicha xalqaro nizolarni muayyan vaziyatni huquqiy tahlil qilish asosida manfaatdor tomonlarning iltimosiga binoan maslahat berish, tomonlarni yarashtirish, murosaga keltirish va tomonlarning o‘zaro iltimosiga binoan, tomonlar oldindan majburiy deb tan olgan qaror bilan sud arbitraji jarayonini o‘tkazish orqali hal etadi.

BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi ekspertlarining fikricha, ekologik sudlarning eng samarali modeli Yangi Zelandiya, Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels kabi ixtisoslashtirilgan mustaqil sud institutlari hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, ixtisoslashtirilgan ekologik sudlar tashkil etish va odil sudlovdan samarali foydalanish orqali insonning ekologik huquqlarini himoya qilishni ta’minlash yo‘lga qo‘yiladi. Shu jihatdan bunday sudlarning faoliyat ko‘rsatishi hayotiy zarurat bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘lida jiddiy qadam hisoblanadi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yangi yondashuv

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish yuzasidan **yo‘l harakati xavfsizligini tartibga solishni qonunosti hujjatlaridan qonun asosida tartibga solishga o‘tkazish** tashabbusi ilgari surilmoqda. Boisi yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari har qanday mamlakatda fuqarolarning hayoti, salomatligi va mol-mulkini himoya qilishning kafolati hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari va AQShda yo‘l harakati xavfsizligiga oid alohida qonunlar bo‘lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Qabul qilinayotgan har bir qoida, har bir yo‘l belgisi va javobgarlik choralari parlament tomonidan tasdiqlangan qonunlarga asoslanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra har yili yo‘l-transport hodisalari natijasida **1,19 mln.**ga yaqin odamlar vafot etadi, yo‘l-transport hodisalari **5 yosh**dan **29 yosh**gacha bo‘lgan bolalar va yoshlar o‘limining asosiy sababidir. Yo‘l-transport hodisalari natijasida yetkazilgan zarar aksariyat davlatlar yalpi ichki mahsulotining **3 foiz**igacha yetadi. Bu kabi muammolarni hal etish uchun yaxlit qonuniy yechim kerak. Bu yechim Ekologik partiya Saylovoldi dasturida taklif etilgan.

Yurtimizda ham sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda. 2023-yilda transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinganiga qaramay, yana rulga o‘tirgan shaxslar tomonidan **707 ta** yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan. Buning oqibatida **212 nafar** shaxs hayotdan ko‘z yumgan, **546 kishi** esa turli darajada tan jarohatlari olgan.

Mazkur statistik ma’lumotlar sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, mazkur munosabatlarni qonun asosida tartibga solish har tomonlama samarali hisoblanadi.

Partiyaning taklifi xalqaro miqyosdagi tashabbuslarga ham bevosita mos hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasi “Dunyo bo‘ylab yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha rezolyutsiya”ni (A/RES/74/299) qabul qilib, 2021 – 2030-yillargacha bo‘lgan davrni yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha harakatning ikkinchi o‘n yilligi deb e’lon qildi. Mazkur rezolyutsiyada yo‘l harakati xavfsizligi muammosini hal qilish uchun asosiy shartlar va xizmatlarni taqdim etish, eng avvalo, qonun chiqaruvchi organlar zimmasida ekanligi qayd etilgan.

Hozirda yo‘l harakati xavfsizligini tartibga solish masalalari “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun, yo‘l harakati qoidalari, yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi, yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari va maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi nizomlar bilan ham tartibga solinadi. Bu, o‘z navbatida, tarqoq holdagi o‘zaro bog‘liq qoidalarni bitta qonunga jamlashni taqozo etmoqda.

Partiya yo‘l harakati xavfsizligini to‘liq qonun asosida tartibga solish yo‘l-transport hodisalari va qoidabuzarliklar sonini kamaytirish, yo‘l harakati qatnashchilari huquqiy madaniyati, o‘zaro hurmati va bilim-tajribasini oshirish, haydovchilar va piyodalar uchun qulay va xavfsiz yo‘l harakatini tashkil etishni ta’minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Yoshlarga tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash lozim

O‘zbekiston Ekologik partiyasining Saylovoldi dasturidan o‘rin olgan muhim tashabbuslardan biri 2009-yil 1-yanvardan keyin tug‘ilgan shaxslarga 2030-yildan boshlab **tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash** va inson salomatligi, ayniqsa, bolalar sog‘ligiga energetik ichimliklarning salbiy ta’sirini inobatga olib, **21 yoshdan kichik shaxslarga** energetik ichimliklar sotishni taqiqlashdan iborat.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra 2024-yil 1-sentabr holatiga O‘zbekistonda tamaki mahsuloti noqonuniy aylanmasining ulushi 12,5 foizni tashkil qildi.

Tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi haqida ko‘p bora eshitsak-da, afsuski, hozirgi kunda butun jahonda tamaki chekuvchilar soni ortib, ayniqsa, yoshlar orasida bu odatning keng tarqalayotgani dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda.

Ko‘plab mamlakatlarda yoshlarning tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishiga chek qo‘yishga qaratilgan sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yangi Zelandiyada **2009-yil 1-yanvarda va undan keyin tug‘ilgan shaxslarga** tamaki mahsulotlarini sotish taqiqlangan bo‘lib, belgilangan tartibni buzganlik uchun **50 000 dan 150 000 dollarga**cha jarima nazarda tutilgan.

Butun dunyoda sog‘lom turmush tarzi tarafdorlari, siyosatchilar hamda tamakiga qarshi kurashish faollari bu muammoni muhokama platformasiga olib chiqmoqda. Mamlakatlar hukumatlarini yoshlarni bunday illatdan himoya qilish uchun zarur choralarni ko‘rishga da’vat etmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab **13 – 15 yoshda**gi **37 mln.** nafar o‘g‘il-qiz tamakini u yoki bu shaklda iste’mol qiladi. Yevropa mintaqasida esa **13 – 15 yoshda**gi **11,5 foiz** o‘g‘il bolalar va **10,1 foiz** qizlar (umumiy hisobda 4 million nafar yosh) tamaki chekadi.

Ekspertlar fikricha, yoshlar o‘rtasida kashandalik ko‘lami ortishiga bir-biridan jozibador reklamalar ko‘payib, qonuniy cheklovlar tobora susayib borayotgani sabab bo‘lmoqda. Mutaxassislar 2050-yilgacha sayyoramizda chekish tufayli **450 mln.** inson hayotdan ko‘z yumishi mumkinligini prognoz qilmoqda.

Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus, ya’ni 2009-yil 1-yanvardan keyin tug‘ilgan shaxslarga 2030-yildan boshlab tamaki mahsulotlari sotilishini taqiqlash taklifi bugungi kundagi muhim masalalardandir. Qolaversa, bu yosh avlodni kashandalik illatidan himoyalashda samarali mexanizmga aylanishi aniq. Bu taklifning qo‘llab-quvvatlanishi aholining, avvalo, yoshlarni tamaki mahsulotlarining zararli ta’siridan, shu bilan bog‘liq ijtimoiy va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga hamda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va qaror toptirishga xizmat qiladi.



Ekologik qonunchilikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish – ustuvor maqsad

O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ekologiyaga oid qonunchilikni kodifikatsiyalash orqali Ekologik va O‘rmon kodekslarini qabul qilish tashabbusi ilgari surilib, mazkur sohalardagi qonunchilik hujjatlarini yaxlit tizimlashtirilishiga erishish ko‘zda tutilmoqda. Ahamiyatli jihati, partiyaning 2019-yilgi Saylovoldi dasturiga ham Ekologik kodeks loyihasini ishlab chiqish masalasi kiritilgan bo‘lib, partiya fraksiyasi tomonidan uning loyihasi ishlab chiqilgan. Uni yanada takomillashtirish va parlament muhokamasiga olib chiqish joriy Saylovoldi dasturining ham ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Ekologik partiyasi qonun ijodkorligi yo‘nalishida “Atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida”gi, “Ekologik axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Tabiatni tiklash to‘g‘risida”gi va “Kimyoviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi yangi qonunlarni hamda yangi tahrirdagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilish zarur deb hisoblaydi.

Xususan, **“Atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida”**gi qonun atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, prognozlashtirish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanishni tizimli ravishda kuzatish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida davlat nazorati yuritilishini baholash hamda ishonchli axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Aholining ekologik axborotga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash maqsadida esa **“Ekologik axborotlashtirish to‘g‘risida”**gi qonunni, atrof-muhitni tiklash, unga bo‘ladigan zararli ta’sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishning huquqiy asoslarini belgilovchi **“Tabiatni tiklash to‘g‘risida”gi qonunni**, hozirda kimyo sanoati jadal rivojlanayotganligini e’tiborga olib, aholini kimyoviy zaharlanishdan saqlash, sog‘ligini muhofazalashga qaratilgan **“Kimyoviy xavfsizlik to‘g‘risida”**gi qonunni qabul qilish ham ustuvor ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, partiya chiqindilarni boshqarish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda tamoyillarini va sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmini hamda davlat boshqaruvi organlari vakolat va funksiyalarini aniq belgilovchi yangi tahrirdagi **“Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunni**, atmosfera havosini muhofaza qilish, issiqxona gazlari normadan ortiq chiqarilishining oldini olish va bu borada tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash maqsadida yangi tahrirdagi **“Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”**gi qonun loyihalarini ishlab chiqish tarafdori.

Shuningdek, dunyoda genetik muhandislik texnologiyalari rivojlanib borayotganligini inobatga olib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda aholi sog‘ligini saqlash uchun yangi tahrirdagi **“Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”**gi qonunni qabul qilish ham sohadagi huquqiy asoslarning mustahkamlanishiga olib keladi.

“Yashil” kelajak yo‘lida Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasi va Milliy dastur qabul qilish hayotiy zarurat

O‘zbekiston Ekologik partiyasining davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydigan **Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasini qabul qilish** tashabbusi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, sohadagi kompleks muammolarning oldini olishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Bu hujjat mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikka erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, aholi uchun qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishni nazarda tutadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Barqaror ekologik rivojlanish strategiyasi yurtimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlod uchun asrab-avaylashga, atrof-muhit musaffoligini saqlashga xizmat qiladigan hujjat bo‘ladi.

Shuningdek, partiya qishloq xo‘jaligi, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarida suvdan samarali foydalanishga qaratilgan milliy dasturni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanini va uni qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Milliy dasturning qabul qilinishi atrofimizda ro‘y berayotgan suv bilan bog‘liq ekologik muammolardan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishga hamda suvdan kelajak avlod ham bahramand bo‘lishiga imkoniyat yaratadi.

Partiya ilgari surayotgan yangi qonunlarni qabul qilish va amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish tashabbuslari inson hayoti va sog‘ligini himoya qilish va ekologik huquqlarini ta’minlashga, sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirishga xizmat qiladi.

Tabiatning betakror mo‘jizasi – muqaddas tuproq, musaffo havo, zilol suv, o‘z nurini saxiylik ila sochayotgan quyosh, barcha-barchasi biz, insonlar uchun bebaho ne’mat ekanligini doimo yodda tutaylik!

Ona-tabiatimizni, atrof-muhitni asrab-avaylash, kelajak avlodga bekamu ko‘st yetkazish yo‘lida birlashaylik!

Xayrullo GAPPOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Dildora KAMALOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod.

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Ulamolar O‘zbekiston Prezidentining tashabbuslarini bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi

1 Hozirgi paytda islomofobiya, ayrim davlatlar o‘rtasida turli mojarolar davom etayotgani, globallashuvning salbiy jihatlari avj olayotgani qayd etilib, bu kabi muammolarning oldini olish uchun dinimiz ta’limotlarini chuqur o‘rganish, yoshlar o‘rtasida ilmni targ‘ib qilish lozimligi qo‘llab-quvvatlandi.

– Olim sifatida yoshlarga, ushbu anjumanni kuzatib borgan sog‘lom fikrli kishilarga aytar so‘zim shuki, mutaassib fikrlarga ergashayotganlar bilib qo‘ysin: islom – ezgulik dini, – deydi Rossiyadagi Bulg‘or islom akademiyasi Ilohiyot kafedrasi o‘qituvchisi, Islom huquqshunosligi va zamonaviy fatvolar bo‘yicha mutaxassis Sayful Asriy. – U hech qachon insonlar qonini to‘kishga, zo‘ravonlik qilishga undamaydi. Muqaddas islom nomidan amalga oshirilayotgan xunrezliklarning buyurtmachilari mo‘minlardan emas. Islom ma’rifatini, uning insonparvarlik g‘oyalarini, bag‘rikenglik borasidagi tavsiyalarini o‘rganmoqchi bo‘lganlar, buzg‘unchi toifalarning yetakchilariga emas, sof tafsirga, Rasulimiz salollohu alayhi vasallamning sunnatlariga tayangan holda saboq berayotgan, biror-bir yurtda fitnaga yoki ixtiloflarga sabab bo‘lmagan, hur fikrli olimlar mulohazalariga e’tibor qaratsin. Chunki mutaassib fikrlarga qo‘shilishning oqibati yaxshilik bilan tugamaydi. Bugungi anjumanda ham bu yana bir bor ta’kidlandi. Jahondagi bir qancha mamlakatlarni katta tashvishlarga solayotgan fitnalarga kuch bilan emas, ma’rifiy yondashuv bilan yechim topishni taklif etgan O‘zbekiston Prezidentining barcha chaqiriqlarini biz, olimlar bir ovozdan qo‘llab-quvvatlaymiz. Bu chaqiriq faqat islom ummati uchun emas, balki butun bashariyat uchun najot sadosidir.

Anjumanda ishtirokchilar, shuningdek, mavzu doirasida qator ezgu tashabbuslarni ilgari surdi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat yo‘llab, anjuman deklaratsiyasini qabul qildi.

“Xalq so‘zi”.

Atom energetikasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari muhokamasi

1 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safoyev, Butunjahon yadro assotsiatsiyasi bosh direktori Sama Bilbao-i-Leon xonim, Energetika vaziri o‘rinbosari Umid Mamadaminov, “O‘zatom” agentligi direktori Azim Axmedxo‘jayev, “Rosatom” davlat korporatsiyasi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari Andrey Petrov va boshqalar so‘zga chiqqan tadbirda atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishning dolzarb masalalari va imkoniyatlari, bu borada amalga oshirilayotgan loyihalarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi. Ishtirokchilar atom energetikasi sohasidagi joriy va istiqbolli loyihalar, atom inshootlari xavfsizligini ta’minlash yo‘llari hamda yadro energetikasining mamlakat energetika balansidagi o‘rni bilan tanishdi. Kadrlar tayyorlash, bu borada innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



Konferensiya dasturidan davra suhbati shaklidagi ikkita panel sessiya o‘rin oldi. Unda yetakchi mutaxassislar, ekspertlar hamda olimlar atom energetikasining istiqbollari va imkoniyatlariga bag‘ishlangan ma’ruzalarni tingladi. Muhokamalarda asosiy e’tibor atom energetikasi sohasida xavfsizlikni ta’minlashga qaratildi. Ishtirokchilar yadroviy obyektlar faoliyati ishonchliligini oshirishga qaratilgan ilg‘or texnologiyalar va innovatsion usullar bilan tanishdi. Atom elektr stansiyalari holatini monitoring va nazorat qilish tizimini rivojlantirishning global tendensiyalari, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarga tezkor javob berish mexanizmlari muhokama etildi.

Mutaxassislar hodisalar ehtimolini minimallashtirish va kasbiy tayyorgarlikni oshirish uchun xalqaro tajribani milliy amaliyotga, jumladan, muntazam mashg‘ulotlarga kiritish muhimligini ta’kidladi. O‘zbekiston atom sanoatini yanada rivojlantirish uchun asos vazifasini bajarishi kerak bo‘lgan xalqaro tartibga solish standartlarini joriy etish, milliy qonunchilikni jahon xavfsizligi va atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish standartlariga muvofiqlashtirishga alohida e’tibor qaratish muhim jihat bo‘ldi.

Muhokamalarda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yo‘nalishlar ham chetda qolmadi. Ishtirokchilar atom energetikasini rivojlantirish mamlakatimiz energetik mustaqilligini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi. Anjumanda O‘zbekiston energetika sohasini diversifikatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-texnikaviy sohada salohiyatni oshirish va tijoriy hamkorlik, jumladan, investitsiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekistonda yadro tibbiyoti va uning saratonga qarshi kurashdagi o‘rni, shuningdek, yadro texnologiyalarini noenergetik yo‘nalishlarda qo‘llash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Universitetlararo hamkorlik va atom sanoati uchun kadrlar tayyorlash vositasi sifatida filiallar yaratish mavzulari ham dolzarb bo‘ldi.

Tadbir O‘zbekistonning xalqaro tajribani integratsiyalash va atom sanoatini xavfsiz hamda samarali rivojlantirishning zarur sharti bo‘lgan ilg‘or standartlarni joriy qilishga tayyorligini namoyish etdi.

“Xalq so‘zi”.

DO‘STLIK VA QARDOSHLIKNI MUSTAHKAMLOVCHI ADABIY MEROS

Yaqinda Prezidentimiz Turkmanistonda amaliy tashrif bilan bo‘lib,Ashxobod shahrida o‘tkazilgan turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300-yilligiga bag‘ishlangan “Zamon va sivilizatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi – tinchlik va taraqqiyot asosi” mavzuidagi xalqaro forumda ishtirok etdi.

Munosabat



Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o‘tgan mazkur xalqaro tadbirda O‘zbekiston yetakchisi nutq so‘zlar ekan, forumning o‘tkazilishi ikki qardosh xalq o‘rtasidagi birodarlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash, mamlakatlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, boy ma’naviy merosimizni jahon ahliga targ‘ib qilish yo‘lida ulkan amaliy qadam bo‘lishini e’tirof etdi. Maxtumquli Firog‘iyning ijodiy merosi nafaqat Sharq mumtoz she’riyati, balki jahon adabiyotini ham boyitganligi ta’kidlandi.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda ham turkman xalqining benazir farzandi, durdona asarlari bilan insoniyat tafakkurini boyitgan Maxtumquli Firog‘iy xotirasini abadiylashtirish, ulug‘ shoir tavalludining 300-yilligini keng nishonlash borasida ko‘plab amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, shoir tavallud sanasiga bag‘ishlab adabiy kechalar, tanlovlar, ilmiy anjuman va seminarlar o‘tkazilmoqda. Teatrlarimizda shoir haqida spektakllar namoyish qilinmoqda. Shuningdek, Toshkent shahri va hududlarimizdagi o‘nlab ko‘cha va xiyobonlar bugun Maxtumquli nomi bilan atalgan. Toshkent va Xiva shaharlarida esa bu ulug‘ siymo xotirasiga xalqimizning hurmati ifodasi sifatida yodgorlik majmualari bunyod etilgan. Yana bir yangilik, yaqinda o‘zbek va turkman kinoijodkorlari tomonidan shoir haqida hamkorlikda badiiy film suratga olindi. Bu ishlar madaniy yakdillikning bir ifodasi o‘laroq ikki qardosh xalqning tarixi, san’ati, tili va urf-odatlari hamisha mushtarak ekanidan dalolat.

E’tirof etish joizki, Maxtumquli turkman she’riyatini sezilarli darajada yuksaltirgan. Shuningdek, u turkman adabiyoti uchun an’anaviy bo‘lgan arab-fors o‘lchovidan voz kechib, uning o‘rniga bo‘g‘inlar tizimini joriy qilgan.

Shoir ijodining asosiy g‘oyasi insonparvarlik va haqiqat madhidir. Uning she’rlarida ishq, Vatan, inson qadri, hurlik, adolat va istiqlol mavzulari markaziy o‘rinda turadi. Shu bois Maxtumqulining adabiy merosi xalqimiz qalbidan ham chuqur joy olgan. Masalan, uning “Ko‘ring” she’rida qardosh xalqlar, xususan, o‘zbek mentalitetiga xos qadriyatlar tarannum etiladi:

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma’rakada o‘tirib-turishin ko‘ring.
Birov bilan oshno bo‘lay desangiz,
Avval o‘z so‘zida turishin ko‘ring.

Ushbu misralar bizga hayotda qiyinchilik va sinovlarda o‘zimizni qanday boshqarish, so‘z va maqsadga sodiq bo‘lish muhimligini uqtiradi. Hayratki, uch asr ilgari bitilgan bu satrlar hozirgi globallashuv davrining og‘riqli nuqtalari mohiyatini avlodlarga ham anglatishda hoziru nozir.

Buyuk shoir va mutafakkirlar – Alisher Navoiy hamda Mahtumquli Firog‘iy ijodi nafaqat o‘zbek hamda turkman xalqlari, balki barcha turkiy dunyo hamda jahon adabiyotsevarlarining umumiy merosi hisoblanadi. Shu ma’noda, 2024-yilda nufuzli xalqaro tashkilot – UNESCO rahnamoligida Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300-yillik qutlug‘ yubiley sanasi dunyo miqyosida keng nishonlanayotgani, o‘z navbatida, TURKSOY xalqaro tashkiloti joriy yilni “Maxtumquli yili” deb e’lon qilgani bejiz emas. Bunday yuksak umumbashariy e’tibor, shubhasiz, ulug‘ shoir adabiy merosi jahon so‘z san’atining bebaho xazinasiga aylanib, insoniyatning ma’naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilib kelayotganidan nishonadir.

Shu o‘rinda aytish joizki, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi mustahkam munosabatlar



asrlar davomida shakllangan an’anaviy do‘stlik rishtalari, yaxshi qo‘shnichilik aloqalari va o‘zaro ishonchga asoslangan. Shu bois ikki mamlakatning strategik sheriklik munosabatlari yildan-yilga kengayib, ko‘p qirrali hamkorlik, ayniqsa siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar taraqqiy etmoqda. Bu yuksalish esa ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari tarixida yangi davr boshlanganini anglatadi. Bu yo‘lda adabiyotning ham ulushi sezilarli darajada katta bo‘lib, ulug‘ shoirlar, xususan, Maxtumquli Firog‘iyning boy ijodiy merosi azaliy rishtalarni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Bahodirjon ShERMUHAMMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti rektori,
professor.

Xabar

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR HAQIDAGI KITOB AQSHDA NASHR ETILDI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri,ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgilaganimizni alohida ta’kidlab keladi.

Xalqaro muhandislar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari nomzodi Ziyovitdin G‘ulomov ana shu dolzarb mavzuda “O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun menejment tizimini takomillashtirish” nomli monografiyasini bitgan va u kitob tarzida o‘zbek tilida chop qilingan edi.



Ushbu asar Amerika Qo‘shma Shtatlarida noshirlar e’tiborini jalb etdi va o‘zbek olimining ushbu kitobi ingliz tiliga tarjima qilinib, ko‘p nusxada nashr etildi.

Muallif o‘z asarida keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilgan uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilanganini chuqur tahlil qilgan.

Kitobda qayd etilishicha, Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osoriatiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Ko‘hna davrda Yunonistonda chaqnagan ilm mash’alasi IX – XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida keng porlay boshladi. Ulug‘ shoirimiz mavlono Furqat ilm-ma’rifatni ko‘ngillarning sururi, ko‘rar ko‘zlarning nuri, deb ta’riflagani bejiz emas. Natijada yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi. Butun dunyo tan olgan mashhur daholar insoniyat ma’rifatiga beqiyos hissa qo‘shdi. Ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘targan, o‘z aql-zakovati va salohiyati bilan beqiyos kashfiyotlar qilgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy kabi o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy asarlari umumbashariyat taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shdi.

Asarda hozirgi davrda bevosita Prezidentimizning tashabbusi bilan O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilganiga keng o‘rin berilgan. Xususan, muallif maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni hamda bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni bo‘lg‘usi Renessansning ijodkorlari sifatida ta’riflaydi.

Shuningdek, asarda yurtimizda shakllangan ulkan ilm, ta’lim-tarbiya salohiyatiga tayangan holda menejment jahon andozalariga mos keluvchi yangi tizimlarni yanada takomillashtirish vazifalarini bajarishi batafsil bayon etiladi.

Kitobda menejment fanining dastlabki kurtaklari miloddan avvalgi asrlarda barg yoza boshlagani, hozirgi davrda esa uchinchi Renessans poydevorini yaratishda bu fan boshqaruv nazariyasi va amaliyotining asosi bo‘lib xizmat qilayotgani o‘z ifodasini topgan.

Erkin ERNAZAROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.

REKLAMA

«O‘zRTXB» AJ «Oracle» dasturiy ta’minotini yetkazib berish bo‘yicha tender e’lon qiladi

Tender predmeti: “Oracle” dasturiy ta’minotni yetkazib berish.

Tender shakli: ochiq tender.

Tenderda dasturiy ta’minotni yetkazib beruvchi, sotuvchi va tender predmetiga o‘xshash dasturiy ta’minotni yetkazib berish tajribasiga ega bo‘lgan mahalliy korxona va tashkilotlar vakillari ishtirok etishi mumkin.

Tender qatnashchisi taqdim etilayotgan dasturiy ta’minotning to‘liq ishlashini ta’minlaydigan dasturiy ta’minot, montaj materiallari yetkazib berilishini ta’minlashi, shuningdek, tender ishtirokchisiga qo‘yiladigan malaka talablariga javob berishi kerak.

Buyurtmachi: “O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJ.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Bobur ko‘chasi, 77-uy.

Telefon: 71-207-00-33, e-mail: zakupki@rtsb.uz portal: www.uzex.uz

Tender ishtirokchilari ma’lumot olish uchun buyurtmachiga har kuni mahalliy vaqt bilan soat 10:00 dan 17:00 gacha (shanba va yakshanba kunlaridan tashqari) tender takliflarini qabul qilish muddati tugaguniga qadar murojaat qilishlari mumkin.

Moliyalashtirish manbasi: o‘z mablag‘lari hisobidan.

To‘lov shartlari: shartnoma imzolangandan keyin 10 bank kuni ichida 30 foiz oldindan to‘lov, to‘lovning qolgan 70 foiz qismi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron hisob-fakturalardan foydalanishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori talablariga muvofiq qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va elektron hisobvaraq-faktura taqdim etilgan kundan boshlab 10 bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

To‘lov shakli: pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Valyuta: so‘m — O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi.

Tender shartlari:

■ ishtirokchi O‘zbekiston Respublikasi hududida dasturiy ta’minotni sotish huquqini beruvchi ishlab chiqaruvchi/distribyutorning ruxsatnomasiga ega bo‘lishi kerak;

■ * tender ishtirokchilarining takliflari 2 ta muhrlangan konvertda yopiq holda taqdim etilishi kerak:

■ birinchi konvertda taklif etilayotgan uskunaning kvalifikatsiya hujjatlari va texnik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etiladi;

■ ikkinchi konvertda yetkazib beriladigan uskunalar uchun narx taklifi va yetkazib berish muddati to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etiladi;

■ * malaka talablariga mos kelmasa, ishlab chiqaruvchidan avtorizatsiya bo‘lmasa va/yoki so‘ralgan texnik xususiyatlarga mos kelmasa, ishtirokchining narx taklifi rad etiladi va ikkinchi konvert ishtirokchiga ochilmasdan qaytariladi;

■ * texnik talablarga eng mos keladigan dasturiy ta’minotni taklif qiladigan sotuvchilar va/yoki yetkazib beruvchilarga ustunlik beriladi.

Kvalifikatsiya hujjatlari:

■ tashkiliy-huquqiy shakl yuridik shaxs shaklida bo‘lishi kerak;

■ ishtirokchini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi;

■ tender ishtirokchisi haqida umumiy ma’lumot;

■ oxirgi 3 yil uchun moliyaviy hisobot (№1 shakl va №2 shakl);

■ shunga o‘xshash sohada kamida 8 yillik tajriba;

■ so‘nggi 5 yil ichida tender asosida sotib olingan mazkur dasturiy ta’minotni ilgari yetkazib berganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, buyurtmachilardan tavsiyaviy xatlar;

■ tender ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatish, bankrotlik bosqichida emasligini ko‘rsatuvchi kafolat xati;

■ tender ishtirokchisi sud yoki hakamlik muhokamasi holatida emasligini tasdiqlovchi kafolat xati;

■ ishlab chiqaruvchi/distribyutorning O‘zbekiston Respublikasi hududida dasturiy ta’minotni sotish huquqini beruvchi ruxsatnomasini tasdiqlovchi sertifikat yoki ruxsatnoma nusxasi;

■ tender ishtirokchisi tomonidan tasdiqlangan faoliyat turiga ruxsat beruvchi hujjatlar nusxasi.

Dasturiy ta’minotni yetkazib berish shartlari:

■ sotib oluvchining manziligacha yetkaziladi (Toshkent shahri, Bobur ko‘chasi, 77-uy).

■ Yetkazib berish muddati: boshlang‘ich to‘lov amalga oshirilgandan keyin 10 (o‘n) ish kuni davomida.

■ Tender hujjatlari **2024-yil 11-noyabr Toshkent vaqti bilan soat 17:00 ga qadar** Toshkent shahri, Bobur ko‘chasi, 77-uy manzilida qabul qilinadi.

Yetkazib beriladigan dasturiy ta’minotning tavsiflari:

Mahsulot nomi va tavsifi	Protsessor litsenziyalari soni
Oracle Database Enterprise Edition — Processor Perpetual	16
Software Update License & Support	16
Oracle Diagnostics Pack - Processor Perpetual	16
Software Update License & Support	16
Oracle Tuning Pack -	

“O‘zRTXB” AJ ma’lumotlarni qayta ishlash markazi serveri tavsifi:

— Ishlab chiqaruvchi: Intel.

— Protsessor turi: (CISC) Intel® Xeon® Gold 6242 2.8G, 16C/32T, 10.4GT/s, 22M Cache, Turbo, HT (150W) DDR4-2933.

— Foydalaniladigan protsessorlar soni: 2.

— 1 protsessor uchun yadrolar soni: 16.

— Operativ xotira hajmi: 1 TB.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6